BOSHLANG‘ICH SINFDA O‘ZLASHTIRISHDA QIYINCHILIKLARGA DUCH KELADIGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA ADAPTIV RAQAMLI TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Ismoilova Hilola Alimardonovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar, ularning pedagogik va psixologik xususiyatlari hamda bunday o‘quvchilar bilan ishlashda adaptiv raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim topshiriqlarini bilim darajasiga moslashtirish, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘zlashtirishda qiyinchilik, adaptiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, individual yondashuv, diqqat, xotira, tafakkur, ta’lim samaradorligi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ta’lim sifatini oshirish va har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda o‘qish, yozish, hisoblash, fikrlash va mustaqil ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Ushbu davrda yuzaga keladigan o‘zlashtirish qiyinchiliklarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish bolaning keyingi ta’lim faoliyati uchun katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining barchasi bir xil tezlikda bilimlarni o‘zlashtirmaydi. Ayrim o‘quvchilar yangi mavzuni tez tushunsa, boshqalarga uni anglash, eslab qolish yoki amaliyotda qo‘llash uchun ko‘proq vaqt va qo‘shimcha yordam talab etiladi. Bunday farqlar o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, diqqatining barqarorligi, xotirasi, tafakkuri, o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va avvalgi bilimlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy pedagogikada barcha o‘quvchilarga bir xil topshiriq va bir xil usulda yondashish bilan cheklanib qolmasdan, ta’lim jarayonini ularning ehtiyojlariga moslashtirish zarur. Bu borada adaptiv raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish muhim imkoniyatlarni yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zlashtirish qiyinchiliklarining pedagogik va psixologik xususiyatlari

O‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar o‘quvchining o‘quv materialini tushunishi, eslab qolishi, qayta bayon qilishi yoki olingan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashida namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, ayrim bolalar matnni ravon o‘qishda, o‘qiganlarini tushunishda, matematik amallarni bajarishda yoki yozma topshiriqlarni mustaqil bajarishda qiynaladilar. Bunday qiyinchiliklarni faqat o‘quvchining qobiliyati pastligi bilan izohlash to‘g‘ri emas. Ularning yuzaga kelishiga turli omillar ta’sir qilishi mumkin. Jumladan, avvalgi bilimlarda bo‘shliqlarning mavjudligi, o‘quv materialining murakkabligi, o‘qitish usulining bolaning ehtiyojlariga mos kelmasligi, diqqatning tez chalg‘ishi yoki o‘quv motivatsiyasining pasayishi shular jumlasidandir.

F. I. Xaydarov va N. I. Xalilovaning „Umumiy psixologiya” darsligida yoritilgan bilish jarayonlari haqidagi nazariy ma’lumotlar mazkur masalani psixologik jihatdan tushunishga yordam beradi. Xususan, diqqat, xotira va tafakkur o‘quv faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridir.

Diqqat - o‘quvchining muayyan topshiriqqa e’tibor qaratishi va uni bajarish jarayonida e’tiborini saqlab turishida namoyon bo‘ladi. Diqqatini uzoq vaqt bir joyga jamlay olmaydigan bola topshiriq shartlarini o‘tkazib yuborishi yoki xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin.

Xotira - yangi ma’lumotlarni eslab qolish, saqlash va kerakli vaqtda qayta tiklash bilan bog‘liq. O‘quvchi yangi o‘rgangan qoidalarini tez unutishi yoki ularni mustaqil topshiriqlarni bajarishda eslay olmasligi mumkin.

Tafakkur - esa o‘quvchining ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushunishi, taqqoslashi, umumlashtirishi va muammoni hal etishida muhim rol

o‘ynaydi. Ayrim o‘quvchilar topshiriqni namunaga qarab bajarsa-da, shunga o‘xshash yangi vaziyatda mustaqil yechim topishda qiynalishi mumkin.

O‘qituvchi ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘quvchining qaysi bosqichda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlashi lozim. Shundan keyingina unga mos pedagogik yordamni belgilash mumkin.

Adaptiv ta’limning mazmuni va pedagogik ahamiyati

Adaptiv ta’lim — o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish sur’ati, individual ehtiyojlari va topshiriqlarni bajarish natijalarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini moslashtirishga qaratilgan yondashuvdir. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi ko‘pincha butun sinf uchun bir xil topshiriq va tushuntirish usulidan foydalanadi. Adaptiv yondashuvda esa o‘quvchilarning ehtiyojlariga qarab topshiriqlarning murakkabligi, tushuntirish shakli, mashqlar soni va qayta ishlash imkoniyatlari o‘zgartirilishi mumkin. Masalan, matematikadan qo‘shish va ayirish mavzusini o‘rganishda qiynalayotgan o‘quvchiga dastlab sodda misollar, ko‘rgazmali tasvirlar va bosqichma-bosqich ko‘rsatmalar beriladi. Mavzuni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi esa murakkabroq misollar yoki mantiqiy masalalarni bajarishi mumkin.

Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning natijalarini kuzatib boradi va zarurat tug‘ilganda topshiriqlarni o‘zgartiradi. Natijada o‘quvchi o‘z imkoniyatlariga mos darajada ishlash va bilimlarini izchil rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. A. J. Atajonova va hammualliflarning „Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” darsligi doirasidagi pedagogik yondashuvlar boshlang‘ich ta’limni tashkil etish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalarini o‘rganish uchun nazariy asos bo’lib xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, adaptiv ta’lim har bir o‘quvchiga alohida o‘qituvchi biriktirishni anglatmaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayonida raqamli vositalar o‘quvchilarning natijalariga qarab turli topshiriqlarni taklif etishi, o‘qituvchi esa ularning rivojlanishini nazorat qilishi mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda quyidagi yo‘nalishlardan foydalanish mumkin:

1. Bilim darajasini aniqlovchi interaktiv topshiriqlar.

O‘quvchilarga mavzu bo’yicha qisqa testlar, rasmlar asosidagi savollar va amaliy mashqlar beriladi. Natijalar o‘quvchining qaysi mavzuni yaxshi o‘zlashtirgani va qaysi yo‘nalishda qo‘shimcha yordamga ehtiyoji borligini aniqlashga ko‘maklashadi.

2. Bosqichma-bosqich o‘rgatuvchi mashqlar.

Murakkab topshiriqlar kichik bosqichlarga ajratiladi. O‘quvchi dastlab sodda mashqlarni bajaradi, keyin esa o‘zlashtirish darajasiga qarab murakkabroq topshiriqlarga o‘tadi. Xatoga yo‘l qo‘yilganda tushuntirish yoki qo‘shimcha misol taqdim etilishi mumkin.

3. O‘qish va matnni tushunishni rivojlantiruvchi vositalar.

Matnni ovozli tinglash, muhim so‘zlarni ajratish, matn yuzasidan savollarga javob berish va voqealar ketma-ketligini aniqlash kabi mashqlar o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Matematik ko‘nikmalarni shakllantiruvchi interaktiv mashqlar.

Sonlar, shakllar, matematik amallar va mantiqiy masalalarni tasvirlar orqali o‘rganish bolalarning mavzuni yaxshiroq anglashiga ko‘maklashishi mumkin. O‘quvchining xatolari tahlil qilinib, unga mos qo‘shimcha mashqlar berilishi maqsadga muvofiq.

5. Tezkor qayta aloqa va natijalarni kuzatish vositalari.

Raqamli tizimlar topshiriqning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bajarilganini ko‘rsatishi, o‘quvchining oldingi natijalari bilan keyingi natijalarini solishtirishga imkon berishi mumkin. Bu o‘qituvchiga ta’lim jarayonini rejalashtirishda yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli vositalar o‘qituvchining pedagogik faoliyatini to‘liq almashtirmaydi. Ular ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi vosita sifatida qo‘llanishi kerak.

O‘zlashtirishda qiyinchilikka duch keladigan o‘quvchilar bilan ishlash metodikasi

Adaptiv raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish uchun ish jarayonini muayyan bosqichlar asosida tashkil etish tavsiya etiladi.

Birinchi bosqich — o‘quvchining qiyinchiliklarini aniqlash. O‘qituvchi kuzatish, suhbat, yozma ishlar va qisqa diagnostik topshiriqlar yordamida o‘quvchining qaysi mavzu yoki ko‘nikmada qiynalayotganini aniqlaydi. Bunda birgina test natijasiga asoslanib xulosa chiqarish o‘rniga, turli ma’lumotlarni hisobga olish zarur.

Ikkinchi bosqich — individual ta’lim maqsadini belgilash. O‘quvchining mavjud bilimlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, aniq hamda erishish mumkin bo‘lgan maqsad belgilanadi. Masalan, matnni tushunishda qiynalayotgan o‘quvchi uchun qisqa matnning asosiy mazmunini aniqlash, matematikada qiynalayotgan o‘quvchi uchun esa ma’lum turdagi misollarni mustaqil yechish maqsad qilib olinishi mumkin.

Uchinchi bosqich — mos raqamli topshiriqlarni tanlash. O‘quvchining ehtiyojiga mos interaktiv mashqlar, audio materiallar, ko‘rgazmali topshiriqlar yoki bosqichma-bosqich tushuntirishlardan foydalaniladi. Topshiriqlar bolaning yoshiga, bilim darajasiga va ta’lim maqsadiga mos bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi bosqich — natijalarni kuzatish va tahlil qilish. O‘quvchining topshiriqlarni bajarish darajasi, yo‘l qo‘ygan xatolari va mustaqil ishlashdagi o‘zgarishlari kuzatib boriladi. Natijalar asosida qo‘shimcha tushuntirish berish yoki keyingi topshiriqlarni murakkablashtirish mumkin.

Beshinchi bosqich — pedagogik yordamni davom ettirish. O‘quvchi qiyinchilikni bartaraf etganidan keyin o’rgangan bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan mashqlar taklif etiladi. Zarurat tug‘ilganda o‘qituvchi individual tushuntirish, kichik guruhda ishlash yoki ota-onalar bilan hamkorlik qilish usullaridan foydalanadi.

Mazkur bosqichlar ta’limni o‘quvchi ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Bunda bolaning natijalari boshqa o‘quvchilar bilan taqqoslash uchun emas, avvalo, uning shaxsiy rivojlanishini kuzatish uchun ishlatilishi maqsadga muvofiq.

Adaptiv raqamli ta’limning psixologik asoslari

Adaptiv raqamli ta’lim vositalarini tanlashda o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. F. I. Xaydarov va N. I. Xalilovaning

„Umumiy psixologiya” darsligida yoritilgan bilish jarayonlari va individual psixologik xususiyatlar haqidagi ma’lumotlar bu masalani tushunishga yordam beradi. Birinchidan, raqamli topshiriqlar o‘quvchilarning diqqatini jamlashga ko‘maklashishi mumkin. Qisqa, tushunarli va maqsadga yo‘naltirilgan mashqlar o‘quvchining vazifani anglashini osonlashtiradi. Biroq ortiqcha animatsiya, ovoz va boshqa chalg‘ituvchi elementlar diqqatni susaytirishi mumkin. Shuning uchun raqamli materiallar sodda va mazmunan aniq bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, ko‘rgazmali materiallar va takroriy mashqlar ma’lumotlarni eslab qolishga yordam beradi. Masalan, yangi so‘zlarni rasm bilan bog‘lash, matematik amallarni tasvirlar orqali tushuntirish va o’rganilgan qoidalarni turli topshiriqlarda qo‘llash bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uchun faqat javobni topishga qaratilgan testlar bilan cheklanib qolmaslik kerak. O‘quvchi o‘z yechimini tushuntirishi, predmetlarni taqqoslashi, sabab va natijani aniqlashi hamda muammoni mustaqil hal qilishga harakat qilishi zarur. To‘rtinchidan, o‘quv motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega. O‘quvchi o‘z imkoniyatiga mos topshiriqni bajara olsa va natijadagi ijobiy o‘zgarishni ko‘rsa, uning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi ortishi mumkin. Bunda rag‘batlantirish bolaning faqat to‘g‘ri javobiga emas, balki harakati, tirishqoqligi va rivojlanishiga ham qaratilishi lozim. Shu bilan birga, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishda o‘quvchilarning ekran qarshisida o‘tkazadigan vaqtini me’yorlash, tanaffuslar tashkil etish va an’anaviy amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlikni ta’minlash kerak.

Adaptiv raqamli vositalardan foydalanishning kutiladigan natijalari va muammolari

Adaptiv raqamli ta’lim vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, topshiriqlarni bosqichma-bosqich tashkil etish va o‘zlashtirishdagi o‘zgarishlarni kuzatishga yordam berishi mumkin.

Kutiladigan ijobiy natijalar quyidagilardan iborat:

O‘quv materialini o‘zlashtirishdagi individual farqlarni hisobga olish;

O‘quvchiga zarur bo‘lgan qo‘shimcha mashqlarni taklif etish;

xatolarni o‘z vaqtida aniqlash va ularni tuzatish;

O‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

O‘quv jarayoniga qiziqishni va o‘ziga bo‘lgan ishonchni qo‘llab-quvvatlash;

O‘qituvchiga o‘quvchilarning rivojlanishini kuzatish imkonini yaratish.

Biroq bu natijalar har qanday raqamli vositadan foydalanish bilan avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Samaradorlik tanlangan dastur sifati, pedagogik maqsadlarning aniqligi, o‘qituvchining tayyorgarligi va o‘quvchining ehtiyojlariga bog‘liq.

Amaliyotda ayrim muammolar ham uchrashi mumkin. Jumladan, maktablarda kompyuter yoki planshetlarning yetarli emasligi, internetga ulanishdagi qiyinchiliklar, pedagoglarning raqamli savodxonligi bilan bog‘liq masalalar hamda o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish zarurati shular jumlasidandir. Bundan tashqari, o‘quvchining barcha o‘quv qiyinchiliklarini faqat raqamli texnologiyalar yordamida bartaraf etish mumkin emas. Ayrim holatlarda o‘qituvchining individual yordami, ota-onalar bilan hamkorlik va tegishli mutaxassislarning maslahati talab qilinishi mumkin. Shu sababli adaptiv raqamli ta’lim vositalari an’anaviy ta’lim usullari, jonli muloqot, amaliy mashqlar va pedagogik kuzatish bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zlashtirish qiyinchiliklarini o‘z vaqtida aniqlash va ularga mos pedagogik yordam ko‘rsatish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. O‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish o‘qituvchiga ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishda yordam beradi. Adaptiv raqamli ta’lim vositalari o‘quvchilarning bilim darajasiga mos topshiriqlar berish, xatolarni aniqlash, qayta aloqa taqdim etish va o‘zlashtirishdagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini yaratishi mumkin. Bunday vositalardan foydalanish, ayniqsa, qo‘shimcha mashq va tushuntirishga ehtiyoji bo’lgan o‘quvchilar bilan ishlashda foydali bo‘lishi mumkin.

Buning uchun o‘qituvchi avvalo o‘quvchining qiyinchiliklarini aniqlashi, individual ta’lim maqsadini belgilashi, mos raqamli topshiriqlarni tanlashi va natijalarni muntazam tahlil qilishi kerak. Raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida bolaning yoshi, psixologik xususiyatlari, sog‘lig‘i va ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish ham muhimdir. Xulosa qilib aytganda, adaptiv raqamli ta’lim vositalari o‘qituvchining pedagogik faoliyatini to‘ldiruvchi va o‘quvchilarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ahamiyatga ega. Ularni maqsadli va metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atajonova A. J., Raximova Sh. A., Raximova G. I., Jumaniyazova G. B. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. — Toshkent: Bookmany Print, 2024. — 274 b.
2. Xaydarov F. I., Xalilova N. I. Umumiy psixologiya. — Toshkent, 2009.